

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INGILIZ TILINI O'RGANISHDA YUZAGA
KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI**

Azamjonova Iroda Adhamjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'linda ingiliz-tili yo'nalishi

E-mail: Adxamjonqochqarov1@gmail.com

Sodiqova Sharifa Ikrom qizi

E-mail: Sharifasodiqova94@gmail.com

Teacher Chirchik state pedagogical university

E-mail: sohilaaminova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'linda ingiliz tilini o'qitish jarayonida uchraydigan asosiy muammolar va ularni hal etish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim sifati o'quvchilarning tilni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari, metodik yondashuvlar, o'qituvchilarning malakasi hamda zamonaviy texnologiyadan foydalanish qobiliyati kabi muhim jihatlar ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, zamonaviy óqitish innovatsion metodlar va matevatsiyani oshirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Óqitish metodlari, psixologik omillar, individual xususiyatlar, til muhiti, grammatik tushuncha, nutqiy kampetatsiya, muloqotga asoslangan óqitish, óyin metodlari, zamonaviy va ilg'or tajribalar.

Abstract. This article analyzes the main problems encountered in the process of teaching English in primary education and ways to solve them. The research examines important aspects of the quality of education, such as students' difficulties in learning the language, methodological approaches, teachers' qualifications, and the ability to use modern technology. At the same time, innovative methods of modern teaching and recommendations aimed at increasing education are given.

Keywords: Teaching methods, psychological factors, individual characteristics, language environment, grammatical understanding, speech competence, communication-based teaching, game methods.

Абстракт. В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие в процессе обучения английскому языку в начальной школе и пути их решения. В исследовании рассматриваются важные аспекты качества образования, такие как трудности учащихся в освоении языка, методические подходы, квалификация преподавателей, умение использовать современные технологии. Вместе с тем, даются инновационные методы современного обучения и рекомендации, направленные на повышение образования.

Ключевые слова: методика обучения, психологические факторы, индивидуальные особенности, языковая среда, грамматическое понимание,

речевая компетенция, коммуникативное обучение, игровые методы.

KIRISH.

Boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘rgatish jarayoni murakkab bo‘lib, ko‘plab pedagogik va metodologik muammolarni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta’lim tamoyillari asosida samarali metodlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda boshlang‘ich ta’limda ingliz tilini o‘qitish dolzarb masalalardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ingliz tilini o‘rganishda turli muammolarga duch kelishadi. Ushbu muammolar o‘qitish metodlari, psixologik omillar va o‘quvchilarning individual xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ingliz tilini o‘rganishda talaffuz va fonetika muammolari ko‘p uchraydi. Lug‘at boyligini rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Grammatikani tushunishda qiyinchiliklar ham muhim muammolardan biridir. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmasligi muammolarni keltirib chiqaradi. Dars jarayonida texnologiyalardan yetarlicha foydalanilmasligi ta’lim samaradorligiga ta’sir qiladi. O‘qituvchilarning malakasi va pedagogik yondashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ba’zi hollarda o‘quvchilar ingliz tiliga bo‘lgan qiziqishlarini yo‘qotib qo‘yishlari mumkin. Boshqa fanlar bilan integratsiya qilinmasligi o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini sekinlashtiradi. Muloqotga asoslangan o‘qitish metodlarini kam qo‘llash natijasida o‘quvchilar real hayotda ingliz tilidan foydalana olishmaydi.

ASOSIY QISM:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari ham til o‘rganishga ta’sir qiladi. O‘quvchilarning ota-onalari tomonidan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmasligi ham muammolardan biridir. O‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan o‘yinli metodlarning kamligi motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarining shakllanmaganligi muhim qiyinchiliklardan biridir. O‘qituvchilar tomonidan baholash tizimining noto‘g‘ri tashkil etilishi ham muammolarni yuzaga keltiradi. Ingliz tilida yozish va o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus yondashuv talab etiladi. O‘quvchilarning eshitish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ko‘proq audio¹ materiallardan foydalanish zarur.

Tilni o‘rganishda real hayotiy vaziyatlar yaratish orqali samaradorlikni oshirish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining e’tiborini uzoq vaqt davomida saqlab qolish qiyin bo‘lishi mumkin. Dars jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish o‘qitish sifatini oshirishga yordam beradi. Qiziqarli vizual materiallardan foydalanish orqali o‘quvchilarning tilga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Til o‘rganishda ijtimoiy muhit va kommunikativ faoliyat muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar uchun individual yondashuv muammolarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy

¹ Cameron, L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge. 2001

pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars jarayonini yanada samarali qiladi. Rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish va tatbiq etish muammolarni hal etishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini samarali o‘qitish uchun innovatsion metodlar va yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ingliz tilini o‘rganish qiyin kechishi mumkin, chunki bu yoshdag‘i bolalar o‘z ona tilini² ham to‘liq o‘zlashtirib ulgurmagan bo‘lishadi.

Til muhitining yo‘qligi – Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari atrof-muhitda ingliz tilidan foydalanish imkoniyatiga ega emaslar. Til muhitining yo‘qligi ularning so‘z boyligi va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda qiyinchilik tug‘diradi. Talaffuz va fonetika muammolari – Ona tilida mavjud bo‘limgan tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish o‘quvchilar uchun qiyin kechadi. Masalan, /θ/ va /ð/³ tovushlari ko‘plab o‘quvchilar uchun murakkab bo‘lib, ular bu tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilolmaydi. Grammatikani tushunishdagi qiyinchiliklar – Boshlang‘ich ta’limda grammatikani quruq qoidalar asosida o‘rgatish samaradorlikni pasaytiradi. O‘quvchilar grammatik tuzilmalarning amaliy qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammolarga duch keladilar. Motivatsiyaning pastligi – Ba’zi o‘quvchilar ingliz tiliga qiziqmaydi yoki uni o‘rganish zaruriyatini tushunmaydi. Dars jarayonining zerikarli bo‘lishi ham motivatsiyani pasaytirishi mumkin. Resurslarning yetishmovchiligi – Boshlang‘ich sinflar uchun maxsus ishlab chiqilgan vizual, audio va interaktiv resurslarning yetarli emasligi o‘quv jarayonini murakkablashtiradi.

Til muhitini yaratish – Maktablarda ingliz tilini qo‘llash uchun sun’iy til muhiyi yaratish zarur. Masalan, ingliz tilida muloqot qilishga undovchi maxsus mashg‘ulotlar, ingliz tilida bolalar filmlarini tomosha qilish yoki ertaklarni tinglash orqali bu muammo hal etilishi mumkin. Talaffuz muammolarini yechish – Audio va vizual materiallardan keng foydalanish, jumladan, talaffuzni mashq qilish uchun maxsus dasturlardan foydalanish foydali bo‘lishi mumkin. Grammatikani o‘yinlar orqali o‘rganish – Grammatikani quruq qoidalar orqali emas, balki kontekstda, rolli o‘yinlar va interaktiv metodlar yordamida o‘rgatish samarali bo‘lishi isbotlangan. Motivatsiyani oshirish – O‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun gamifikatsiya (o‘yin elementlari), loyihibiy metodlar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni kiritish muhim. Zamonaviy resurslardan foydalanish – Boshlang‘ich sinflar uchun mo‘ljallangan vizual va interaktiv materiallardan (mobil ilovalar, videodarslar, multfilmlar) foydalanish o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini osonlashtiradi.

XULOSA.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda uchraydigan muammolar til muhiyi, talaffuz, grammatika, motivatsiya va resurslarning yetishmovchiligi bilan bog‘liq.

² Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education. 2007

³ Ellis, R. The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press. 2008

Ushbu muammolarni hal qilish uchun interaktiv metodlarni keng qo'llash, o'yinli yondashuvlardan foydalanish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o'quvchilarga real hayotiy kontekstda tilni qo'llash imkoniyatini yaratish ularning o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ta'lim jarayonini shunday tashkil etish kerakki, har bir o'quvchi ingliz tilini nafaqat o'rgansa, balki undan foydalanish imkoniyatiga ham ega bo'lsin. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'rgatish jarayonida ko'plab qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ushbu muammolarni hal etish uchun innovatsion metodikalar, motivatsiya usullari va texnologik resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik yondashuvning takomillashuvi va interaktiv resurslarning keng qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Cameron, L. Teaching Languages to Young Learners. Cambridge. 2001
2. Ellis, R. The Study of Second Language Acquisition. Oxford University Press. 2008
3. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education. 2007
4. Lightbown, P. Spada, N. How Languages are Learned. Oxford University Press. 2013
5. Ur. P. A Course in English Language Teaching. Cambridge University Press. 2012